

**Sherdonova Yulduz Bahrom qizi**

*Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti*

*Falsafa yo‘nalishi 1-bosqich magistranti*

*ysherdonova@gmail.com*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada axloqiy qadriyatlarning falsafiy mohiyati va tarixiy shakllanish jarayoni tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida qadriyatlarning shakllanish mexanizmlari, tarixiy evolyutsiyasi va zamonaviy jamiyatdagi transformatsiyasi o‘rganiladi. Shuningdek, maqolada G‘arb va Sharq falsafasidagi asosiy axloqiy konsepsiyalar qiyosiy ravishda tahlil qilinib, ularning o‘xshash va farqli jihatlari ochiladi. Natijalar axloqiy qadriyatlar ijtimoiy tizim barqarorligining muhim sharti va inson xulq-atvorini tartibga solayotgan universal hodisa ekanligini ko‘rsatadi.*

**Kalit so‘zlar:** *axloq, qadriyat, etika, aksiologiya, normativlik, ma‘naviyat, falsafiy tahlil, axloqiy qadriyatlar.*

## **KIRISH**

Axloqiy qadriyatlar muammosi insoniyat tafakkurining eng qadimiy va murakkab masalalaridan biridir. Inson o‘zining ijtimoiy mavjudot sifatidagi hayotini tartibga solishda muayyan axloqiy mezonlarga tayanib ish olib boradi. Insoniyat taraqqiyoti davomida jamiyatning barqarorligi, ijtimoiy tartib va shaxs kamoloti aynan axloqiy me‘yorlar orqali ta‘minlanadi. Shu bois, axloqiy qadriyatlar nafaqat shaxsiy hayot, balki jamiyat taraqqiyotining ham asosiy omillaridan biridir.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Mavzuga oid adabiyotlarni o‘rganish jarayonida axloqiy qadriyatlarning falsafiy mohiyati va tarixiy shakllanishi haqida ko‘plab ma‘lumotlar tahlil qilinadi. Sharq va G‘arb tafakkurida axloq tushunchasining mohiyati, ularning bir-birdan farqli va o‘xshash jihatlari o‘rganiladi.

Qadimgi yunon faylasufi Aristotel axloqni insonning “telos”i, ya‘ni oliy maqsadi bilan bog‘laydi va baxt-saodatga erishish yo‘li sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, “Har qanday san‘at va har qanday ta‘lim, shuningdek har bir amal va ongli tanlov, odatda, ma‘lum bir yaxshilikka intiladi, deb hisoblanadi. Shu sababli yaxshilikni “hamma narsa intiladigan narsa” deb to‘g‘ri ta‘riflashgan.

Biroq maqsadlarda ma‘lum bir farq bor: chunki ba‘zi maqsadlar faoliyatlarning o‘zidir, boshqalari esa ulardan alohida bo‘lgan muayyan natijalardir. Qachonki maqsadlar amallardan alohida mavjud bo‘lsa, unda natijalar tabiatan faoliyatlardan yaxshiroq bo‘ladi[1]. Bu qarash axloqiy qadriyatlarning amaliy faoliyati bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Agar biz qilayotgan harakatlarning ma‘lum bir maqsadi bo‘lsa va bu maqsad o‘z-o‘zidan istaladigan bo‘lib, boshqa barcha maqsadlar aynan shu maqsad uchun istaladigan bo‘lsa, hamda biz hamma maqsadlarni boshqa bir maqsad uchun tanlayversak, unda ravshan

bo‘ladiki, bu maqsad aslida yaxshilik, ya‘ni eng oliy yaxshilikdir[2]. Insonning “eng oliy yaxshilik”ni bilishi uning hayot tarziga katta ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi va to‘g‘ri maqsadga aniq erishishini ta‘minlaydi.

Immanuel Kant “Axloq metafizikasi asoslari” asarining har bir bo‘limida alohida bir vazifani bajaradi va bu vazifalar umumiy dalilning bir qismini tashkil etadi. Muqaddimada Kant birinchi bo‘limdagi vazifasini shunday ta‘riflaydi: “oddiy bilishdan boshlab, uning eng oliy prinsipini aniqlashgacha analitik yo‘l bilan borish”[3].

Boshqacha aytganda, Kant axloq haqidagi kundalik tasavvurlarimizdan boshlaydi, ya‘ni odamlar turmush tarzida allaqachon “to‘g‘ri”, “noto‘g‘ri”, “burch” degan axloqiy tushunchalarni ishlatadi. Demak, odamlar axloq borligini ich-ichidan biladi va unga amal qiladi.

Shuni yodda tutish muhimki, u aynan oddiy qarashlarimizni tahlil qilayotgani sababli, Kant bu bo‘limda insonlarda majburiyatlar mavjudligini isbotlashga urinmaydi. Aksincha, u buni isbotlash uchun nimalarni aniqlash kerakligini ko‘rsatmoqchi bo‘ladi. Ya‘ni savol shunday qo‘yiladi: Axloqiy majburiyat haqiqiy ekanini ko‘rsatish uchun biz nimani isbotlashimiz kerak?[4].

Kantning o‘z asarida bunday savol qo‘yishi va unga “inson aqli o‘zi uchun majburiy bo‘lgan umumiy qonunni qo‘ya oladi va unga bo‘ysunadi”, deb javob berishining sababi o‘sha davrda axloq va axloqiy tushunchalarga bo‘lgan empiristlar va ratsionalistlarning keskin qarashlari bo‘lgan. Kant davridagi empiristlar barcha bilimlarimiz, shuningdek axloqiy tushunchalarimiz tajribadan kelib chiqadi, deb hisoblashgan bo‘lsa, ratsionalistlar esa, barcha haqiqatlarni o‘z-o‘zidan ravshan bo‘lgan xudo, oliy ruh kabi aqliy tamoyillardan chiqarish mumkin deb ishonishgan.

Kantning yuqoridagi savolga javobi faoliyati davomida bosqichma-bosqich shakllanadi:

kundalik hayotdagi axloqdan so‘ng “yaxshi iroda” g‘oyasi shakllanadi, ya‘ni inson axloqi uning niyatiga bog‘liq;

axloqiy qonun shartsiz bo‘lishi kerak, agar inson axloqqa ma‘lum bir foyda uchun amal qilsa, unda bu axloq emas;

axloqiy qonun tabiat qonunlari singari tashqaridan emas, insonning ichidan paydo bo‘ladi;

inson aqli va ongli mavjudot bo‘lganligi sababli o‘zi uchun qonun chiqaradi va unga amal qiladi;

“kategorik imperativ” tamoyili paydo bo‘ladi: “Shunday amal qilki, sening harakating umumiy qonun bo‘la olsun”.

J.Mill Utilitarizmasarida axloqning foydaliligi to‘g‘risida shunday deydi: “ko‘pincha “Foydaparastlik” deb atalib, axloqsiz ta‘limot sifatida tanqid qilinadi. Bu atamaning odatiy ma‘nosidan foydalanib, uni “Prinsip” tushunchasiga qarshi qo‘yishadi. Ammo “foydali” so‘zi “to‘g‘ri”ga qarama-qarshi qo‘llanganda, odatda u shaxsning o‘z manfaatlari uchun foydali bo‘lgan narsani anglatadi. Masalan, yuqori lavozimli amaldor o‘z o‘rnini saqlab qolish uchun mamlakat manfaatlarini qurbon qilganida”[5].

Sharq falsafasida esa axloqiy qadriyatlar ko‘proq insonning ichki kamoloti va jamiyatdagi uyg‘unlik bilan bog‘liq. Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri” asarida axloqiy mukammallikni ijtimoiy taraqqiyotning asosi sifatida talqin qiladi. Farobiy asarning “Shahar – davlat jamiyatining rais a’zosi haqida so‘z” nomli bo‘limida:

Shahar – davlat jamiyati boshlig‘i (raisi) eng barkamol boshliqdir. U o‘z yaqinidagi a‘zolar (mansabdorlar)ni boshqaradi. Bular o‘z navbatida, o‘z qo‘l ostidagi mansabdorlarni boshqaradilar. Raisga bo‘ysunuvchi, unga yaqin a‘zolar (mansabdorlar) ham kamol topgan (o‘z vazifasini yaxshi bo‘luvchi va a‘lo bajaruvchi boshliqlar) bo‘lishi kerak, o‘zidan quyidagi boshliqlarni yaxshi yo‘lga sola oluvchi, oqil bo‘lishi zarur. Oddiy fuqarolarga nisbatan quyi darajali mansabdorlar izzatliroq, bularga nisbatan o‘rta bo‘g‘inga mansub boshliqlar izzatliroq, shahar – davlat boshlig‘i bularning barchasidan izzat-hurmatga loyiqdir. Eng kichik bo‘g‘in, eng past darajali a‘zolarining ham o‘ziga yarasha izzat-hurmati bor[6], deya kishi mansabdor bo‘lsa ham, odamlar bilan munosabatda axloqqa rioya qilishi, insoniy fazilatlarni unutmashligi haqida yozadi.

Alisher Navoiy esa insoniy fazilatlarni ma’naviy barkamollikning mezoni sifatida ko‘rsatadi. “Hayratul-abror”da shoirning Yaratganga, borliqqa, tabiatga, insonga bo‘lgan falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ilmiy, ma’rifiy, axloqiy va estetik munosabati aks ettirilgan. Podshoh bilan ulusning insonlik nuqtai nazaridan ayirmasiz, farqsizligini, podshohning hunar, axloq, adl, insof, mantiq, taqvo yo‘lida ulusdan o‘ta olmaganini anglatish bilan o‘zining adolatli shoh haqidagi qarashlarini anglatadi[7].

Zamonaviy davrda globallashuv, texnologik taraqqiyot va madaniy pluralizm axloqiy qadriyatlar tizimiga yangi chaqiriqlarni yuzaga keltirmoqda. Shu sababli, axloqiy qadriyatlarni falsafiy jihatdan chuqur o‘rganish dolzarb ilmiy vazifalardan biridir. Faylasuf olim L.Muhammadjonovanning fikriga ko‘ra - “Globallashuv – bu dunyo mamlakatlari o‘rtasidagi iqtisodiy, madaniy, texnologik va siyosiy aloqalarning kuchayishi jarayonidir. Bu jarayon yangi imkoniyatlar yaratish bilan birga milliy madaniyatlarning yo‘qolishi yoki bir-biriga o‘xshab qolishi xavfini ham keltirib chiqaradi. Yoshlar turli xalqlarning musiqa, moda, kino va san’atini o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladilar”[8].

Faylasuf olim Abdulla Sherning fikricha, axloqshunoslik axloqning kelib chiqishi va mohiyatini, kishilik jamiyatidagi axloqiy munosabatlarni o‘rganadi. “Axloq so‘zi arabchadan olingan bo‘lib, insonning muomala va ruhiy xususiyatlari majmuini, fe‘lini, tabiatini anglatadigan xulq so‘zining ko‘plik shaklidir. “Axloq” iborasi ikki xil ma’noga ega: umumiy tushuncha sifatida u fanning predmetini anglatadi, muayyan tushuncha sifatida inson fe‘l-atvori va xatti-harakatining eng qamrovli qismini bildiradi. Axloqni umumiy tushuncha sifatida olib, uni doira shaklida aks ettiradigan bo‘lsak, doiraning eng kichik qismini odob, undan kattaroq qismini - xulq, eng qamrovli qismini axloq egallaydi[9].

L.Muhammadjonovanning talqini bo‘yicha - axloq inson ma’naviy kamoloti sarchashmalaridan biri bo‘lib, u tufayli jamiyat ravnaq topadi, fuqarolarning baxt-saodat haqidagi orzu-umidlari ro‘yobga chiqadi. U o‘zining paydo bo‘lish tabiatiga ko‘ra ijtimoiy-tarixiy hodisa hisoblanadi. Odamzod ijtimoiy mavjudot sifatida shakllana boshlagan kundanoq axloq paydo bo‘lgan. Aniqrog‘i, odamzodning o‘zi ular o‘rtasidagi axloqiy munosabatlarning hosilasi sifatida shakllana borgan. Odamlar o‘rtasidagi axloqiy

munosabatlar negizida jamiyatning axloqiy hayoti ijtimoiy borliqning tarkibiy qismi sifatida qaror topgan[10].

Tadqiqot quyidagi metodologik yondashuvlar asosida amalga oshirildi: Dialektik: axloqiy qadriyatlarining qarama-qarshiliklar orqali rivojlanishi va o‘zgarishi; tarixiy-falsafiy: qadimgi davrdan to hozirgi kungacha bo‘lgan falsafiy qarashlar evolyutsiyasi tahlil qilindi; qiyosiy metod: Sharq va G‘arb falsafasidagi axloqiy nazariyalar o‘zaro taqqoslandi; aksiologik tahlil: qadriyatlarining mohiyati, tuzilishi va funksiyalari aniqlashtirildi.

## **TAHLILLAR VA NATIJALAR**

Axloqiy qadriyatlarining mohiyati: axloqiy qadriyatlar – bu jamiyat tomonidan tan olingan va inson xulq-atvorini tartibga soluvchi me‘yorlar majmuidir. Ular normativ xarakterga ega bo‘lib, inson harakatlarini baholash mezonlari sifatida xizmat qiladi. Faylasuf olimi L.Muhammadjonova “Amaliy etika va estetika” o‘quv qo‘llanmasida quyidagi fikrlarni keltiradi - “Axloqiy qadriyatlarga rioya qilishni har bir shaxs o‘zidan boshlashi kerak. Eng asosiy narsa axloqiy qadriyatlarni bilish emas, balki ularga amal qilishdir. Shaxsning faoliyatiga nisbatan axloqiy bahoni jamoatchilik beradi. Zero, axloqlilik – shaxs faoliyatining jamoatchilik belgilagan ma‘naviy mezonlariga mos kelishidir.

Barcha axloqiy xatti-harakatlar tahliliga ma‘naviy asos bo‘lgan iymon, vijdon esa inson hayotining ichki ruhiy qonunidir. Axloq muammolari tahlilida inson ko‘proq shu ichki qonunga tayanib ish ko‘radi”[11].

Jamiyatning axloqiy hayotini o‘zida aks ettiruvchi axloqni ijtimoiy-ma‘naviy hodisa sifatidagi tarkibiy tuzilishini faylasuf olimi L.Muhammadjonova “Jamiyat, axloq va qadriyatlar falsafasi” darsligida uch guruhga tasniflaydi: birinchidan, kishilarning kundalik hayotida sodir etadigan axloqiy atti-harakatlaridan iborat bo‘lgan amaldagi axloq, ya‘ni axloqiy amaliyot; ikkinchidan, muayyan qadriyatlar asosida fikr yuritish, baholash, qadriyatning qimmatini belgilashni o‘z ichiga oluvchi axloqiy ong; uchinchidan, o‘zini o‘zi axloqiy anglash: mavjud vaziyatni axloqiy jihatdan tahlil qilishni, ya‘ni qalban o‘zi bilan gaplashish, o‘zicha baholash, o‘zini nazorat qilish, o‘zini o‘zi takomillashtirish; boshqa odamlar bilan birga ich-ichidan aziyat chekish; aniq vaziyatda yaxshi va yomonni qalban his qilish; yaxshi va yomondan birini tanlashga irodaviy jihatdan tayyor turish kabi darajalarga ajratish mumkin[12].

Axloqiy qadriyatlar aksiologiyaning markaziy kategoriyalaridan biridir. Professor ustoz L.Muhammadjonova ularning tabiatini quyidagicha ifodalaydi: “Birinchidan, har qanday axloqiy qadriyat insonning shunchaki bilib - bilmay qilgan xatti-harakati emas, balki, har tomonlama o‘ylab ongli ravishda sodir etadigan yoki sodir etgan ijobiy axloqiy xatti-harakatidir. Aniqrog‘i, axloqiy qadriyat bu ideallik va reallikning dialektik birligidir, yuksak orzu va unga mos keluvchi aniq xatti-harakatlarni o‘zida aks ettirgan ijtimoiy-axloqiy munosabatlar tizimidir.

Ikkinchidan, axloqiy qadriyatlar inson yoki jamiyatning biror faoliyati doirasi bilan chegaralanib qolmaydi. Masalan, u faqat mehnat yoki sevgi-ishq munosabatlari bilan chegaralanmaydi. Balki, inson borlig‘ining barcha jabhalarini qamrab oladi. Qaerda inson, shaxs, millat mavjud bo‘lsa. axloqiy qadriyat ham shu erda hozir-nozirdir.

Uchinchidan, axloqiy qadriyatlar inson va jamiyatning mavjud holatini emas, balki ongli hayot-faoliyati yo'nalishining miqdoriy va sifatiy hajmini ifodalab, shakl-shamoyilini ko'rsatib, unga muqarrarlik baxsh etadigan hodisa hisoblanadi. Masalan, yaxshi niyatlar bilan boshlangan nikoh to'yi, albatta axloqiy qadriyatlar tufayli baxtli-saodatli oilaning shakl-shamoyilini belgilab beradi va uning paydo bo'lishini muqarrar qilib qo'yadi. Demak, axloqiy qadriyatlarning uchinchi tabiati uning muqarrarligida ko'rinadi.

To'rtinchidan, axloqiy qadriyatlar u yoki bu jamoa, siyosiy kuchlar tomonidan ishlab chiqilgan axloqiy kodekslar qanchalik mukammal bo'lmasin, baribir, uning talablari doirasiga sig'maydi. Chunki, u insoniyat axloqiy tarbiyasining hosilasi sifatida doimo harakatda bo'lib, cheksizlik sari intiladi. Bu cheksiz harakat insoniyatni yangidan yangi olijanob ezgu-maqсадlar sari boshlab boradi"[13].

Axloqiy qadriyatlarning funksional tahlili quyidagicha: normativ funksiya – xulq-atvorni boshqaradi, odamlar o'rtasidagi axloqiy munosabatlarni axloqiy normalar urf-odat, an'ana va qadriyatlar orqali tartibga soladi; aksiologik funksiya – qadriyatlarni baholaydi, “axloqiylik va axloqsizlik”, “yaxshilik va yomonlik” kategoriyalariga ko'ra odamlarning xatti-harakatlariga, axloqiga baho beradi; ijtimoiylashtiruvchi funksiya – shaxsni jamiyatga moslashtiradi, odamlar bilan har qanday sohadagi munosabatlarni axloqiy qadriyatlar asosida o'rnatishini ta'minlaydi; integrativ funksiya – ijtimoiy birlikni ta'minlaydi, ijtimoiy hamkorlik, ijtimoiy mas'uliyat kabi jamoaviylik xislatlarini shakllantiradi.

Tadqiqot ishida Sharq va G'arb faylasuflarining axloq va axloqiy qadriyatlar haqidagi qarashlari o'rganildi. Aristotelga ko'ra, axloqiy mukammallik fazilatlarini rivojlantirish orqali erishiladi, Kantning qarashlarida axloqiylik burch va majburiyatga asoslanadi, Mill “Utilitarizm” asarida axloqiy qarorlar maksimal foyda keltirish mezonini ekanligi haqida yozadi. Bundan ko'rinadiki, g'arb jamiyatida axloqiylik va axloqiy qadriyatlar jamoaviy, an'anaviy tarzda emas, shaxsning individual xislatlari, shaxsiy maqsad va burchlari negizida ifodalanadi.

Sharq jamiyatida esa, axloqiy qadriyatlarning mohiyati jamiyat va xalq o'rnatgan va amal qilib kelgan azaliy urf-odatlar, an'analar, pand-nasihad va o'gitlar negizida ifodalanadi. Farobiyning “fozil jamiyat” g'oyasi; Navoiyning komil inson tushunchasi; Ibn Sino bola tarbiyasi, ta'limi jamoaviy tarzda bo'lishi kerak, deb uqtirgani yuqoridagi fikrimiz isbotidir.

## Muhokama

Zamonaviy jamiyatda axloqiy qadriyatlar sezilarli o'zgarishlarga uchramoqda. Zigmunt Bauman ta'kidlaganidek, “suyuq modernlik” sharoitida qadriyatlar barqaror emas, balki doimiy o'zgarishda bo'ladi, ya'ni “Uzilish, nomuvofiqlik va kutilmaganlik — hayotimizning odatiy holatlariga aylangan. Hatto ko'plab odamlar uchun ular haqiqiy ehtiyojga ham aylangan, chunki ularning ongini endi faqat keskin o'zgarishlar va doimiy yangilanib turadigan ta'sirlar oziqlantiradi. Biz endi uzoq davom etadigan narsalarga chiday olmaymiz. Zerikishdan qanday qilib samara olishni ham unutmik[14].

Bugungi kunda eng muhim masalalardan biri – milliy qadriyatlar bilan global etik tamoyillar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashdir. Inson huquqlari, erkinlik va tenglik kabi qadriyatlar universal ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, har bir jamiyat o'zining tarixiy va madaniy xususiyatlarini saqlab qolishi zarur. Axborot texnologiyalarining

rivojlanishi yangi axloqiy muammolarni keltirib chiqardi: sun’iy intellekt etikasi; kiberxavfsizlik; shaxsiy ma’lumotlar muhofazasi.

### XULOSA

Mazkur tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, axloqiy qadriyatlar murakkab va ko‘p qatlamli tizim bo‘lib, ular tarixiy va madaniy omillar ta’sirida shakllanadi, ma’lum jamiyat yoki xalq miqyosida ommalashadi; ular tarixiy jarayonda o‘zgarib boradi; zamonaviy jamiyatda ular yanada ahamiyatli, ayniqsa, hayotimizga sun’iy intellekt kirib kelganidan buyon axloqiy qadriyatlarga bo‘lgan ehtiyoj sezilarli darajada ortib bormoqda; axloqiy qadriyatlar insoniyat hayotining fundamental asosini tashkil etadi, insonning barcha sohadagi munosabatlari axloqiy qadriyat orqali tartibga solinadi va yo‘naltiradi. Ular nafaqat shaxsiy xulq-atvorni, balki jamiyatning umumiy rivojlanishini ham belgilaydi. Ular shaxsiy va ijtimoiy hayotni tartibga soluvchi muhim mexanizm hisoblanadi. Kelajakda axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish uchun ularni ilmiy asosda o‘rganish va ta’lim tizimiga keng joriy etish zarur.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Aristotel. Nikomax etikasi. - Toshkent: Ma’naviyat, 2021. - 312 b.
2. Aristotel. Nikomax etikasi. - Toshkent: Ma’naviyat, 2021. - 312 b.
3. Immanuel Kant “Groundwork of the Metaphysics of Morals” Translated and edited by Mary Grego with an introduction BY Christine M. Korsgaard Harvard University. Cambridge University Press.
4. Immanuel Kant “Groundwork of the Metaphysics of Morals” Translated and edited by Mary Grego with an introduction BY Christine M. Korsgaard Harvard University. Cambridge University Press.
5. Utilitarianism John Stuart Mill Copyright© Jonathan Bennett 2017.
6. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. - 160 b.
7. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2000. – 80 b.
8. Muhamedjanova L. “Zamonaviy sharq jamiyatlarida axloqiy qarashlar va o‘zgarishlar”, ORIENTAL JOURNAL OF HISTORY, POLITICS AND LAW.
9. Sher A. Axloqshunoslik. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010. – 328 b.
10. Muhammadjonova L. Jamiyat, axloq va qadriyatlar falsafasi. -Toshkent: Universitet 2023. – 501 b.
11. Muhammadjonova L. Amaliy etika va estetika. - Toshkent-2020. “Universitet”, 2020. -256 b.
12. Muhammadjonova L. Jamiyat, axloq va qadriyatlar falsafasi. -Toshkent: Universitet 2023. – 501 b.
13. Muhammadjonova L. Jamiyat, axloq va qadriyatlar falsafasi. -Toshkent: Universitet 2023. – 501 b.
14. Liquid Modernity Zygmunt Bauman polity Copyright © Zygmunt Bauman 2000.